

Andijon viloyati statistika boshqarmasi



2020 - yilning yanvar-aprel oylarida QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi –
1177,6 mlrd. so`m

Yirik qurilish tashkilotlari
ulushi – **4,4 %**

Kichik tashkilotlar va
mikrofirmalar ulushi
– **73,7 %**

Norasmiy sektor
ulushi – **21,9 %**

Andijon viloyatida qurilish faoliyati investitsiya kiritilishining jozibador yo`nalishlaridan biri va iqtisodiyotining ahamiyatli tarmog`i hisoblanadi. Joriy yilning yanvar-aprel oylarida Andijon viloyatida jami **1177,6** mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o`shish sur`ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan **90,1 %** ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **52,4** mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **4,4 %** ni, hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan **93,5 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **73,7 %** i yoki **867,4** mlrd. so`m to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan **90,0 %** ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa **21,9 %** yoki **257,8** mlrd. so`m to`g`ri keldi hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan **89,5 %** ni tashkil etdi.



Yirik qurilish tashkilotlari

- hajmi - 52,4 mlrd. so`m
- o`shish sur`ati - 93,5 %
- ulushi - 4,4 %



Kichik korxonalar va mikrofirmalar


- hajmi - 867,4 mlrd. so`m
- o`shish sur`ati - 90,0 %
- ulushi - 73,7 %



Norasmiy sektor

- hajmi - 257,8 mlrd. so`m
- o`shish sur`ati - 89,5 %
- ulushi - 21,9 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, mlrd. so'm



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida **72,4 %** ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,2 %** punktga kamaydi.




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha bajarilgan ishlar ulushi viloyat bo'yicha jami qurilish ishlari hajmida **9,6 %** ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **2,4 %** punktga kamaydi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa **18,0 %** to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,6 %** punktga ko'paydi.



Yanvar-aprel oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da



- Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Joriy davrda yirik qurilish tashkilotlarining faoliyat turlari bo'yicha ulushi 4,4% ni (**0,2** % punktga ko'paydi), mos ravishda, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi **73,7** % ni (**0,8** % punktga ko'paydi) va norasmiy sektorning ulushi **21,9** % ni (**1,0** % punktga kamaydi) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-aprel oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi, umumiy hajmga nisbatan **2,9 %** ni tashkil etdi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **97,0 %** (**9,8** punktga ko'paydi) va norasmiy sektorning ulushi **0,1 %** (**4,1 %** punktga kamaydi) tashkil etdi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **16,2 %** ni tashkil etdi va **4,6 %** punktga kamaydi. Qolgan **83,8 %** kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **4,6 %** punktga ko'paydi.

Xududlar kesimida qurilish ishlari hajmi

(2020-yil yanvar-aprel oylarida)

	Jami, mlrd. so`m	O`sinh sur`ati, % da	shu jumladan, mulkchilik shakllari bo`yicha, jamiga nisbata % da	
			Davlat, % da	Nodavlat, % da
Viloyat bo`yicha:	1177,6	90,1	6,5	93,5
➤ Andijon sh.	438,3	92,5	3,7	96,3
➤ Xonobod sh.	35,9	89,2	-	100,0
tumanlar:				
➤ Andijon	165,1	92,9	3,9	96,1
➤ Asaka	36,2	78,1	8,8	91,2
➤ Baliqchi	15,5	66,6	20,6	79,4
➤ Bo'ston	46,0	92,4	8,3	91,7
➤ Buloqboshi	17,4	71,5	18,4	81,6
➤ Jalaquduq	44,7	87,6	30,0	70,0
➤ Izboskan	36,1	102,6	8,9	91,1
➤ Ulug`nor	17,3	63,3	28,9	71,1
➤ Marxamat	59,4	87,2	5,4	94,6
➤ Oltinko`l	41,8	91,6	9,1	90,9
➤ Paxtaobod	48,4	127,3	6,6	93,4
➤ Xo`jaobod	45,4	88,7	7,1	92,9
➤ Shaxrixon	96,4	84,6	3,3	96,7
➤ Qo`rg`ontepa	33,7	82,3	9,5	90,5

2020-yil yanvar-aprel oylarida qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari tarkibi




Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **867,4** mlrd. so'mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **73,7 %**) tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **90,0 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining **21,9 %** i yoki **257,8** mlrd. so'm to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **89,5 %** ni tashkil etdi.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **52,4** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi **4,4 %** ni va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **93,5 %** ni tashkil etdi.

2020-yil yanvar-aprel oylarida qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlarining o'sish sur'atlari, % da




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining hududlar bo'yicha tarkibida yuqori ko'rsatkich Andijon shahrida kuzatilib, u hududdagi jami qurilish hajmining **62,8 %** ini tashkil etdi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari ulushi, % da




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Qo'rg'ontepa tumanida kuzatilib, u hududdagi jami qurilish hajmining **1,0 %** ini tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan (**5,6** marta kamaydi).

Hududlarda qurilish ishlarining o`sinh sur'atlari (o`tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o`sinh sur`ati Paxtaobod tumanida qayd etildi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan **127,3** % ni tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **26,6** % punktga o`sdi.

2020-yilning yanvar-aprel oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da



Andijon viloyati bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining shahar va tumanlar kesimidagi katta ulushi asosan Andijon shahrida (**37,2 %**), Andijon (**14,0 %**) va Shahrixon tumanlarida (**8,2 %**) kuzatildi.



Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
 Nashr uchun mas'ul: **S.Hadjaev**
 Aloqa telefoni: (0374) 228-29-37